



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 4 (6)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

4

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Конвергенция и поляризация развитых и развивающихся стран в эпоху развития искусственного интеллекта.....	8
Mamatov B.S. Foreign investment is an important factor of economic growth.....	15
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya kompaniyasining rivojlanish tendensiyasi.....	22
Karimov Sh.X. Turizmni barqaror rivojlantirishda hududiy boshqaruv omillarining ahamiyati.....	26
Raximov D.Sh. To‘qimachilik sanoatida diversifikatsiya darajasi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili.....	30
Rashidova K. Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing faoliyati samaradorligini oshirish.....	32
Хакимов Д.Р. Процессы, возможности и ограничения экономической интеграции между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой.....	37
Olimjanova Sh.O., Eshonqulov I.N. O‘zbekistonda agrar munosabatlarni takomillashtirishda resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish masalalari.....	42
Valikulov Sh.Z. O‘zbekistonda neft-gaz sanoatiga investitsiyalarni jalb qilishning institutsional muammolari va yechimlari.....	48
Ganieva L.S. Bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari.....	52
Axrorova N.U. Turizm xizmatlaridan tajriba iqtisodiyotiga o‘tish: evolyutsion tahlil.....	56
Kamilova A.N. Sanoat ishlab chiqarish korxonasida mehnatni normalashtirish menejmentini tashkil etish va takomillashtirish yo‘llari.....	61
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari.....	66
Abdiyeva D.K. Priority directions for improving the national logistics policy in Uzbekistan.....	69
Xalimova N.J. Kreativ turizm: nazariy asoslar va ta’riflar qiyosiy tahlili.....	74
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda qadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	78
Zaxirova G., Shavkatova N.O’. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari.....	82
Maxmudov H., Muxtarova G., Maxmudov H. Ekologik muommolar va ularning mamlakat iqtisodiyotga ta’siri.....	86
Umurzakova M.N., Gulahmadov Sh.A. Davlat ichki va tashqi qarzlarning ijobiy va salbiy jihatlar tahlili.....	89
Xasanov I.M. O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlarning transformatsiyasi: tadbirkorlikni rivojlantirish omili sifatida.....	94
Abdullayev M.G’. Personalni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari va uning korxona samaradorligiga ta’siri.....	101
Адилов Б.Б., Абдуллаева М.К. Ўзбекистонда саноат корхоналарини ривожлантириш, тенденциялари.....	105
Абдуғаниев Ё.Ж. Яшил иқтисодиёт - барқарор ривожланиш мақсадларининг янги парадигмаси сифатида.....	112
Xusanboyeva T.M. Talabalarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda to‘garaklarning o‘rni va ahamiyati.....	116
Xashimova S.N. O‘zbekiston milliy yashil taksonomiyasi mohiyati va ahamiyati.....	120
Mitillayev I.T. Tijorat banklarida kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari.....	124
Бобоқулова М.Ғ. Инвестиция муҳити ва Ўзбекистондаги инвестиция жараёнларининг динамикаси.....	127
Bekberganova M.R. “O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari tushumlarining ekonometrik tahlili”.....	134
Рахимова М.Ш. Модернизация системы социальной защиты.....	138
Oqboyev A.R. Tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini xalqaro standartlar asosida oshirish yo‘llari....	142
Djumanova R.F. Aholi turmush sifatini baholashning metodologik yondoshuvlari.....	147
Mamatov B.S., Umurzakova M.N. Davlat tibbiy sug‘urta tizimida bepul xizmatlar, reimbursasiya va foydalanish shartlari.....	154
Ешимбетов У.Х. Қишлоқ хўжалигини ҳудудий ташкил этиш ва иқтисослаштиришнинг илмий асослари.....	158
Xodjaeva F.K. Sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish....	167
Yusupova M. Hududlarda ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	171
Abduxalilov B.Z. O‘zbekistonda IT provayderlar xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish: huquqiy va institutsional asoslar.....	175
Abdisamatov A.A. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	178

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

Abdusalomov I.J. Korxonalarda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va uning moliyaviy natijalarga ta'siri.....	182
Amirov L.F., Sokhibjonova S.S. Directions for increasing agricultural product exports in the context of a green economy.....	185
Boltaxo'jayeva I.O'. Ways to improve the enterprise management system based on modern management models.....	191
Dehqonov U.M., Sativaldiyeva G. Korxonalarda bo'nak to'lovlari hisobining moliyaviy hisobotga ta'siri va ularni optimallashtirish bo'yicha tahliliy yondashuvlar.....	195
Isoqova M.A. O'zbekistonda yashil energiyadan foydalangan holda kichik biznesni rivojlantirishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari.....	199
Mamadaliyev B., Teshaboyev J. Korxonalarda mehnatga haq to'lash hisobini avtomatlashtirish va audit samaradorligini oshirish yo'llari.....	202
Poziljonov M., Teshaboyev X. Davlat muassasalarida asosiy vositalarning hisobini takomillashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	206
Rustamova F.A. Qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning roli.....	209
Tursunboyev Q.O. Transport xizmatlari ko'rsatish sohasida kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	213
Umarov T.S. Hududlarda qurilish korxonalarini faoliyatini samarali tashkil etishni ekonometrik modellash va prognozlash.....	216
Xo'jaliyev A.O., Avilov N. Moliyaviy natijalar hisobi va auditda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....	220
Xomidov T.T., Arziboyeva R.S. Bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish omillari.....	223
Xusainov M. Sanoat korxonalarida mahsulot tannaxsini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirishning metodologik asoslari va audit mexanizmlarini rivojlantirish.....	227
Begaliyeva M.A., Egamshukurova N.R. Jahon savdo tizimi va milliy iqtisodiyot uchun uning ahamiyati..	231
Gulimboyev S.I. Korxonalarda moliyaviy resurslar taqsimotining zamonaviy usullari.....	235
Ibodov J.Q. Moliyaviy tizimning xizmatlar sohalari va bo'g'inlari.....	239
Jumabayeva K.B. Xalqaro pensiya tizimi modellari va ularning mintaqaviy tamoyillari.....	243
Khusanova Z.R., Yo'ldasheva Z.U. Global trends in the development of international tourism services....	249
Sadullayev M.D. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini boshqarish.....	252
Tilabov N.T. Davlat qarz siyosatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	256
Toshtemirov Y.N. O'zbekistonda logistik faoliyatni rivojlantirishning hozirgi darajasi.....	264
Toshtemirova Z.M. Mahalla institutining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyati.....	268
Uralov E.O. Surxondaryo viloyati xududida sanoatni shakllanishi va rivojlanishi.....	273
Xursanova F.Sh. Budjetlararo munosabatlarning iqtisodiy mazmuni.....	278
Yuldasheva G.A. Investitsion qarorlarni kabul qilishda moliyaviy tahlilning ahamiyati va roli	282
Абдуллаева Р. Тadbirkorlikning zamonaviy kuryentlari.....	287
Юлдашев А. Фаргона вилояти маҳаллаларида инвестиция фаоллигини оширишнинг институционал асослари	292
Abdumalikova Z., Razakova B.S. O'zbekiston sug'urta bozorini moliyaviy texnologiyalar (insurtech) asosida rivojlantirish: imkoniyatlar va yo'nalishlar.....	294
Azimov B.F. Milliy innovatsion tizimni boshqarishda tashkiliy-institutsional va moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning roli.....	300
Begaliyeva M.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimida sifat menejmentini samarali joriy etishning ahamiyati.....	304
Dawletmuratov A.M. Xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish va daromadlarni ko'paytirish mexanizmlari.....	308
Karimova L.S., Jabborov A.A. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot: holati, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	313
Maxmudov F.U. Oliy ta'lim muassasalarida moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqish mexanizmlari.....	319
Navruz-zoda L.B. Kichik biznes subyektlarining kadrlar salohiyati va bilim infratuzilmasiga bo'lgan talablari: Buxoro viloyati misolida.....	323
Nishonboyev D.E., Abdumalikov S.T. Chorvachilik tarmog'ini innovatsion boshqaruv asosida rivojlantirish istiqbollari.....	327

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” jurnali 4-son 2026 yil

Nurmirezayeva N.R. Valyuta kursi o‘zgarishining eksport-importga ta’siri: O‘zbekiston misolida amaliy baholash.....	331
Rahimov A.M. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish.....	335
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tajribasi va uni joriy etish.....	339
Ravshanova M.M. Hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularning elektron tijorat tizimidagi o‘rni.....	343
Ro‘ziboyeva M. O‘zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi va iqtisodiy o‘sish darajasining o‘zgarish dinamikasi.....	347
Saidova F.K., O‘rozov Sh. Korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) va yashil iqtisodiyot: logistika sektorida boshqaruv strategiyalari.....	350
Sultonov S.N. Hududlarda klasterlarini investitsion - innovatsion rivojlantirish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida).....	354
Sultonova D.U. Korxona iqtisodiyotida resurslarni boshqarishning raqamli-integratsiyalashgan modelini takomillashtirish.....	358
To‘raxojayev H.H., Hoshimov P.Z. Islomiy banklarning ishlash tamoyili va islom moliya tizimining O‘zbekiston iqtisodiyotiga tadbiqu.....	362
Tursunova N.U. Bridging the innovation gap: development-focused entrepreneurship support and international intermediaries.....	368
Акрамова Г.А. «Роль женщин-ученых в совершенствовании механизмов коммерциализации ремесленных услуг Узбекистана в условиях цифровой экономики».....	374
Болтаев Ж.А. Трансформация банковского сектора в условиях цифровизации мировой экономики..	379
Жунайдуллаев М.А. Жанубий Кореяда рақамли таълим технологиялари орқали индивидуал спортчиларини тайёрлаш тизимини бошқаришнинг миллий хусусиятлари.....	384
Митрушова М.Л. Интеллектуальный капитал как ключевой фактор инновационного развития предприятия.....	388
Муродов О.У. Барқарор ривожланиш тушунчаси ва унинг иқтисодий, ижтимоий ҳамда экологик мезонлари.....	392
Саидова Г., Ибрагимова К., Қурбонов А. Рақамли трансформация шароитида енгил саноат корхоналари маҳсулотларининг халқаро рақобатбардошлигини ошириш стратегиялари.....	396
Sarkarov S.Z. O‘zbekistonda qurilish sohasining texnologik bisqichlar kesimida rivojlanishi.....	401
Minojiddinova N.M. Aksiyadorlik jamiyati korxonalarida xodimlarni samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.....	406
Ruzmetova I.Y. Xorazm viloyati iqtisodiyotida kichik biznesning o‘rni.....	410
Qudratov D., Ismoilov A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoqlar rivojidadagi o‘rni.....	414
Qodirov H.D. Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish yo‘llari.....	417
Kinjayev K.N. Banklarda kreditlar tasnifini yaxshilash orqali rentabellikni ta’minlash yo‘llari.....	421
Макушина А.Ю. Государственная поддержка экспортного потенциала субъектов малого предпринимательства в Республике Узбекистан.....	424
Rejapov X.X., Oxunjonova K.K. Ixtisoslashtirilgan savdo majmualarini moliyaviy resurslarini shakllantirish va ishlatish yo‘nalishlari – Bek Baraka savdo majmuasi misolida.....	430
Махкамова Н.С. Роль государственно-частных партнерств (ГЧП) в продвижении устойчивого развития	434
Avilov N., Muhammadova G. Korxonalarda materiallar harakatining auditi va iqtisodiy tahlili.....	441
Abdullayeva R.G., Raxmonova I.S. O‘zbekiston qishloq hududlarida bandlikni ta’minlash holati va rivojlanish tendensiyalari.....	444
Yusupova M.B. Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning ABC usuli.....	447
Toshpo‘latov M.A. Ta’lim loyihalarida moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanishning xususiyatlari...	452
Hamidova Sh., Ahmadaliyeva H. Kapital qo‘yilmalarning samaradorlik tahlili.....	458
Хамракулов С.М. Собственный капитал в функционировании экономических субъектов Республики Узбекистан.....	461
Zayavitdinova N.M. Raqamli platformalar asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	465
Turg‘unov T.S. O‘zbekistonda aholi turmush darajasini statistik taxlil qilishning ahamiyati.....	469
Ботирова З.Қ. Рақамли иқтисодиёт шароитида даромадларни бошқаришнинг хусусиятлари....	475
Бегимова Н.К. Меҳнат бозорида гендер тафовутларининг келиб чиқиш сабаблари.....	481

mehnat shakllaridan yuqori samaradorlikka ega, texnologik asoslangan faoliyatga o‘tish jarayoni jadallashmoqda. Bu esa qishloq aholisi daromadlarini oshirish, migratsiya oqimini kamaytirish hamda hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston qishloq hududlarida bandlikni ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. So‘nggi yillarda tadbirkorlikni rivojlantirish, moliyaviy va konsalting yordamlarini taqdim etish, shuningdek, kasb-mahorat tizimini modernizatsiya qilish orqali qishloq aholisi, ayniqsa ayollar va yoshlar, mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantirildi. Hududiy misollar shuni ko‘rsatadiki, Buxoro, Surxondaryo, Xorazm va Qoraqalpog‘iston viloyatlarida texnik maktab va kollejlarda modernizatsiya qilinib, agrar servis, irrigatsiya va issiqxona yo‘nalishlarida amaliy kurslar yo‘lga qo‘yilgan. Shu bilan birga, xizmat ko‘rsatish, qayta ishlash va hunarmandchilik tarmoqlarining kengayishi bandlikni diversifikatsiyalashga yordam berdi. Natijada qishloq hududlarida bandlik nafaqat iqtisodiy o‘lish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, balki ijtimoiy barqarorlik va hududiy rivojlanishni ta’minlashda muhim omil sifatida xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. European Union. (2023). EU Support to Technical and Vocational Education and Training (TVET) Reform in Uzbekistan. Brussels: European Commission.
2. International Labour Organization. (2022). World Employment and Social Outlook: Trends 2022. Geneva: ILO.
3. UNESCO. (2020). Skills Development for Employability in Rural Areas of Uzbekistan (EU-funded project description). Tashkent: UNESCO Office in Uzbekistan.
4. World Bank. (2013). World Development Report 2013: Jobs. Washington, DC: World Bank.
5. World Bank. (2023). Project Appraisal Document: Uzbekistan – Rural Enterprise Development Project (P168343). Washington, DC: World Bank.

UDK: 657.474.5:658.5

USTAMA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARINI TAQSIMLASHNING ABC USULI

**ABC-МЕТОД РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ НАКЛАДНЫХ
РАСХОДОВ**

ABC METHOD OF ALLOCATING MANUFACTURING OVERHEAD COSTS

Yusupova Malika Botiraliyevna

Andijon davlat texnika instituti professori, iqtisod fanlari nomzodi

Annotatsiya

Mazkur maqolada ishlab chiqarish korxonalarida ustama xarajatlarni hisobga olish va ularni taqsimlashni optimallashtirish masalalari chuqur ilmiy asosda tadqiq etilgan. Tadqiqotning dolzarbligi tobora rivojlanib borayotgan raqobat muhitida xarajatlarni samarali boshqarish va tannarxni hisoblash jarayonini takomillashtirish orqali mahsulot tannarxini pasaytirish dolzarb masala ekanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot jarayonida ustama ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish, ular yuzasidan ma’lumotlarni shakllantirish hamda ularni taqsimlashning an’anaviy va innovatsion usullari tahlil qilindi. Shuningdek, ABC - Activity-Based Costing usulining mazmun mohiyati to‘liq yoritib berilgan hamda usulni qo‘llashning amaliy ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: ishlab chiqarish xarajatlari, mahsulot tannarxi, asosiy ishlab chiqarish xarajatlari, ustama ishlab chiqarish xarajatlari, ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash usullari

В данной статье на глубоком научном уровне исследуются вопросы учета накладных расходов и оптимизации их распределения на производственных предприятиях. Актуальность исследования объясняется тем, что в условиях растущей конкуренции эффективное управление затратами и снижение себестоимости продукции за счет совершенствования процесса расчета себестоимости являются неотложными задачами.

В ходе исследования были проанализированы традиционные и инновационные методы учета производственных накладных расходов, формирования данных о них и их распределения. Также подробно изложена сущность метода ABC (Activity-Based Costing) и научно обоснована практическая значимость его применения.

Ключевые слова: производственные затраты, постоянные производственные затраты, производственные накладные расходы, методы распределения производственных накладных расходов.


This article provides a thorough scientific examination of overhead cost accounting and optimization at manufacturing enterprises. The relevance of the study lies in the fact that, in a context of increasing competition, effective cost management and cost reduction through improved costing processes are urgent tasks.

The study analyzed traditional and innovative methods for accounting for production overhead costs, compiling data on them, and allocating them. The essence of the Activity-Based Costing (ABC) method is also detailed, and the practical significance of its application is scientifically substantiated.

Keywords: production costs, fixed production costs, production overhead costs, production overhead cost allocation methods.

Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish tartibi va shu asosda ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish buxgalteriya hisobi tizimida abadiy dolzarb mavzulardan biridir. Tannarxni kalkulyatsiya qilishning bosqichlari bo'yicha ko'rib chiqishning o'ziyoq yuqoridagi fikrimizning isboti bo'ladi.

Odatda jarayonning birinchi bosqichida tannarxni kalkulyatsiya qilish maqsadida ishlab chiqarish xarajatlarini maqsadga muvofiq ravishda asosiy va ustama xarajatlar kesimida hisobga olish taqazo etiladi. Ikkinchi bosqichda ishlab chiqarish jarayonining bilvosita xarajatlarini tannarxga kiritish maqsadida ustama xarajatlar sifatida tasniflab, tegishli schotlarda hisobga olish va yig'ish amalga oshiriladi. Uchinchi bosqichda esa asosiy xarajatlarni bevosita ayrim turdagi mahsulotlar tannarxiga olib borish vazifasi bajariladi. Keyingi bosqichda esa ana shu bilvosita ishlab chiqarish xarajatlarini ayrim turdagi mahsulotlar o'rtasida u yoki bu taqsimot bazasiga tayanib taqsimlash amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Ushbu jarayonni shartli ravishda quyidagi sxema yordamida bayon qilish mumkin:



1-chizma. Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish bosqichlari

Manba: Muallif ishlanmasi

Boshqaruv hisobi bo'yicha xalqaro tajribada ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning bir necha xil usullari tavsiya etilganligiga qaramay, ushbu masala haligacha o'zining yechimini to'laqonli topmaganligi barchamizga ma'lum.

Xalqaro tajribada mavjud usullar ikki toifaga bo'linadi: an'anaviy va innovatsion. Kolin Drurining "Managerial and Production Accounting" va Charlz Xorngren, Jorj Foster va Shrikant Datarning "Managerial Accounting" kabi klassik boshqaruv hisobi darsliklarida ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash usullari an'anaviy kalkulyatsiyalash tizimlari va zamonaviy funksional kalkulyatsiyalashga bo'lingan [1,4].

An'anaviy usullar turli muqobil variantlarga ega bo'lib, odatda ular ishlab chiqarish texnologiyasi va ishlab chiqariladigan mahsulot nomenklaturasi, tashkiliy xususiyatlarni inobatga olgan holda qo'llaniladi. Quyida ana shu usullarning mazmun mohiyatini tizimli ravishda ko'rsatish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

1-jadval

Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning an'anaviy usullari

T.r.	Usulning nomi	Usulning maqsadi va xususiyatli jihatlari
1.	To'g'ri usul	To'g'ri usulda bir bo'linmaning ikkinchisiga ko'rsatilgan xizmatlari inobatga olinmaydi. Xizmat ko'rsatishning barcha xarajatlari to'g'ridan-to'g'ri asosiy sexlar xarajatlariga hisobdan chiqariladi.[1]
2.	Bosqichli usul	Bosqichli usul xizmat ko'rsatuvchi (yordamchi) bo'linmalarning qarama-qarshi xizmatlarini taqsimlash uchun ishlatiladi. Bu usul to'g'ri usulga nisbatan aniqroq usul hisoblanadi. Taqsimlash sikli eng ko'p xizmat ko'rsatib, kam xizmat iste'mol qilgan sexdan boshlanadi. Bu sexning xarajatlari yordamchi va ishlab chiqarish sexlari o'rtasida taqsimlanadi. So'ngra keyingi yordamchi sex olinadi va shunday tarzda bosqichma-bosqich taqsimot amalga oshiriladi. Taqsimot eng kam xizmat ko'rsatgan sexning xarajatlarini taqsimlash bilan tamomlanadi. [1, 4]
3.	Qayta taqsimlash usuli	Qayta taqsimlash usuliga asosan xizmat ko'rsatish bo'linmasining xarajatlari ob'ektlar o'rtasida taqsimlanmay qolgan summaning miqdori arzimagan birlikka teng bo'lgunga qadar taqsimlanib boriladi.
4.	Chiziqli tenglamalar usuli	Chiziqli tenglama usuli algebraik usul bo'lib, xizmat ko'rsatish bo'limlaridan ishlab chiqarish sexlariga qo'shimcha xarajatlarni taqsimlashning eng aniq usuli bo'lib, ular o'rtasidagi o'zaro xizmatlarni hisobga oladi. U xarajatlarni tenglamalar tizimi orqali modellashtiradi. Bunda har bir xarajat markazining umumiy xarajatlari to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar yig'indisi va boshqa bo'limlarning xarajatlari ulushiga teng bo'ladi.

Manba: Muallif ishlanmasi

Yuqoridagi ta'riflardan an'anaviy usullar ham ma'lum bir darajada afzallikka egadek ko'rinadi. Amalda esa muammo faqat xarajatlarni tegishli ob'ektlar va mahsulotlar o'rtasida taqsimlashda emas, balki xarajatlarning to'liq va to'g'ri hisobga olinishidadir. Gap shundaki, ustama ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga ko'ra murakkab hisoblangani uchun ularning tarkibiga ba'zan unumsiz, ya'ni hech qanday samara bermagan xarajatlar ham kiritib yuborilishi mumkin. Masalan, me'yordan ortiqcha vaqt uchun to'lovlar yoki turli xil yo'qotishlar kabilar aynan ustama ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga singib ketishi mumkin.

Yuqoridagi usullar yordamida faqat aniq taqsimlash tartibiga e'tibor qaratiladi, biroq u yoki bu xarajatlarning aynan shu ob'ekt yoki mahsulotni ishlab chiqarishga aloqadorligiga ahamiyat berilmaydi.

Xalqaro tajribada mavjud bo‘lgan innovatsion usullardan hisoblanadigan ABC - Activity-Based Costing usuli esa yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf qilish imkonini beradi, deb hisoblaymiz.

ABC xarajatlarni hisobga olish usuli mamlakatimizda deyarli qo‘llanilmaydi, chunki u umumiy qabul qilingan buxgalteriya amaliyotiga mos kelmaydi. Biroq, bu usul operatsion natijalarni moliyaviy tahlil qilish uchun juda asoslangan ma‘lumot beradi. Keling, uning mohiyatini ko‘rib chiqaylik.

Usul o‘z nomini "Faoliyatga asoslangan xarajatlar" qisqartmasidan olgan. U shuningdek, funksiyaga asoslangan xarajatlar yoki operatsion xarajatlar sifatida ham tanilgan. Mamlakatimizda keng tarqalgan usullardan farqli o‘laroq, bunda xarajatlarni hisoblash obekti to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar yig‘iladigan mahsulot turi bo‘lib, keyin qo‘shimcha, ya‘ni ustama ishlab chiqarish xarajatlari hisob-kitoblar yordamida (to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlarning ma‘lum bir turiga yoki ularning umumiy miqdoriga mutanosib ravishda) xarajatlarni hisoblash obektlariga taqsimlanadi, ABC xarajatlarni hisobga olish usuli bilan qo‘shimcha xarajatlar butunlay boshqacha tarzda taqsimlanadi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlarni (har bir mahsulot turi uchun) yig‘ish tamoyili o‘zgarishsiz qoladi.

Ustama ishlab chiqarish xarajatlarni taqsimlash jarayoni ABC usulida qanday farq qiladi? U buxgalteriya hisobi obekti, ya‘ni mahsulot turi va faoliyatning moliyaviy natijasi o‘rtasida asosiy biznes jarayonlari operatsiyalari zanjiri orqali sabab-oqibat bog‘liqligini o‘rnatadi. Bu jarayonlarga ishlab chiqarish texnologik jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lganlar va unga aloqador bo‘lmaganl savdo va boshqaruv muomalalari kiradi. Har bir biznes jarayoni barcha turdagi mavjud resurslarni o‘z ichiga olishi mumkin. ABC usuli har bir aniqlangan biznes jarayonining tannarxini hisoblashni va keyin uning bir qismini ma‘lum bir mahsulot tannarxiga kiritishni o‘z ichiga oladi.

Shunday qilib, mahsulot bilan bajarilgan operatsiyalar tannarxi mahsulotning butun jarayoni davomida, yaratilishdan tortib sotishgacha, uning tannarxiga doimiy ravishda qo‘shiladi. Bu bizga nafaqat har bir mahsulot turining tannarxi vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zgarishini kuzatish, balki qo‘shimcha xarajatlarning sabablarini ular paydo bo‘lgan paytda aniqlash va odatda ma‘lum bir bazaga mutanosib taqsimlashni hisoblash usuli bilan erishilganidan ko‘ra, uni ishlab chiqishning har bir bosqichida yakuniy mahsulot tannarxiga kiritilgan ushbu xarajatlar hajmini aniqroq aniqlash imkonini beradi. Shu tarzda olingan ma‘lumotlar xarajatlar tarkibini tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun juda asosli ma‘lumot bo‘lib xizmat qiladi.

Bu usul keng turdagi mahsulotlar va ularni ishlab chiqarish va iste‘molchilarga yetkazib berish bilan bog‘liq hamda ustama xarajatlar hisoblanadigan ko‘plab operatsiyalarga ega kompaniyalar uchun qiziqarli va qulay hisoblanadi. Biroq, uni amalga oshirish katta mehnat sarfi talab qilinadi, chunki mamlakatimizda qo‘llaniladigan buxgalteriya tizimlari qo‘shimcha ishlov bermasdan ABC usulidan foydalanish uchun yetarli ma‘lumotlarni taqdim etmaydi. Shuning uchun ikkita yondashuvdan birini tanlash kerak bo‘ladi:

- mavjud buxgalteriya hisobini takomillashtirish va ustama xarajatlar yuzasidan ma‘lumotlarni qayta ishlashni amalga oshirish;

- yoki parallel buxgalteriya hisobini tashkil qilish va ustama xarajatlarni turli tamoyillar yordamida taqsimlash.

ABC usuli talab qiladigan ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash tamoyilini qo‘llash quyidagi qo‘shimcha choralarni amalga oshirish orqaligina qo‘llash mumkin:

- xarajatlar markazlarini ajratish;
- ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish bosqichiga olib chiqish bilan bog‘liq asosiy biznes jarayonlari ro‘yxatini tuzish;

- har bir aniqlangan jarayonning tannarxini o‘z ichiga olgan xarajatlar reestri;
- har bir aniqlangan jarayonning natijasini tavsiflovchi o‘lchovlar tizimi (xarajat omillari);
- ma‘lum bir bosqichda mahsulot bilan ishlash uchun zarur bo‘lgan tegishli biznes jarayonining xarajatlar omillarining miqdoriy qiymati;

- mahsulot ishlab chiqarish bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar uchun taqsimlash asoslari.

Ushbu jarayonlarni amalga oshirish quyidagi muammolarni keltirib chiqaradi:

- biznes-jarayonlarning ko‘p darajali, ya‘ni ko‘p pog‘onali tabiati;

- barcha zarur biznes-jarayonlarni tavsiflovchi yagona klassifikatorni yaratishning qiyinligi;
- turli biznes-jarayonlar uchun bir xil bo‘lishi yoki ma’lum bir jarayon natijalarining mohiyatini aks ettirish uchun mos bo‘lmagan tegishli ko‘rsatkichlarni tanlash;
- ma’lum biznes-jarayonlar uchun maxsus xarajatlarni hujjatlashtirish tizimini ishlab chiqish zarurati.

Biznes-jarayonlarga misol tariqasida uskunalarni saqlash va ulardan foydalanish, materiallarni yetkazib berish, yuklash va tushirish operatsiyalari, buyurtmalarni qayta ishlash kabilarni kiritish mumkin.

Ushbu jarayonlar bo‘yicha xarajatlarni taqsimlash uchun quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin:

- mashina soatlari;
- qabul qilingan materiallar miqdori;
- yuklash-tushirish ishlari miqdori;
- buyurtmalar soni;
- sozlashlar soni.

Mahsulot tannarxiga bilvosita, ya’ni ustama xarajatlarni kiritish uchun har bir aniqlangan biznes jarayonini mahsulot tannarxiga kiritishdan oldin quyidagilarni aniqlash lozim:

- ushbu jarayonning umumiy xarajatlari;
- tegishli xarajatlar omillarida baholangan ushbu jarayonning bajarilgan natijalarining umumiy soni;
- biznes jarayonining yetkazib beriladigan birligi uchun sarflanadigan xarajatlar, ushbu jarayonning umumiy xarajatlarini ushbu jarayonning yetkazib beriladigan umumiy soniga bo‘lish yo‘li bilan hisoblanadi.

Tegishli bosqichdagi mahsulot tannarxi biznes jarayonining yetkazib beriladigan mahsulotlari sonini ushbu bosqichda qayta ishlash uchun zarur bo‘lgan yetkazib beriladigan mahsulotlarning birligi uchun sarflanadigan xarajatlarga ko‘paytirilishini o‘z ichiga oladi. Tugallanmagan ishlab chiqarish ham shunga o‘xshash tarzda baholanadi.

ABC xarajatlarni hisobga olish usuli ustama xarajatlarni hisobga olishni tashkil etishga va ularni ishlab chiqarish tannarxiga kiritish tartibiga maxsus yondashuv bilan tavsiflanadi. Bu yondashuv ustama xarajatlarni keltirib chiqaradigan jarayonlarni muayyan operatsiyalar tizimiga (biznes jarayonlari) ajratishni o‘z ichiga oladi. Har bir biznes jarayoni tannarxni hisoblash ob’ekti hisoblanadi. Biznes jarayonining bir qismini ma’lum bir mahsulot tannarxiga kiritish ushbu biznes jarayonining birliklari soni bilan belgilanadi, bu esa ushbu biznes jarayonining bir birligi uchun sarflangan xarajatlar smetasiga asoslanadi.

ABC - Activity-Based Costing usuli, xalqaro tajriba ko‘rsatishicha, qator afzalliklarni ta’minlashi mumkin ekan. Xususan, tannarxning yuqori aniqlik darajasi, resurslarni aniq taqsimlash imkoniyati, xarajatlar shaffofligini oshirish, qarorlar qabul qilish jarayonining samaradorligini ta’minlash, narxni aniqroq shakllantirish imkoniyatlari aynan mana shu usul yordamida ta’minlanadi. Korxonalar raqobat muhitida qo‘shimcha imkoniyatlarni yaratish uchun yuqoridagi chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali ABC - Activity-Based Costing usulini qo‘llashga o‘tishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Друри, Колин. Управленческий и производственный учет.: учебник для студентов высших учебных заведений, обучающихся по специальностям экономики и управления / К. Друри ; пер. с англ. В. Н. Егорова. - 5-е изд., перераб. и доп. - Москва : Юнити, 2015. - 1401, [2] с. : (Серия "Зарубежный учебник").; ISBN 978-5-238-01060-1
2. Воронова Е.Ю. Позаказное калькулирование: распределение производственных накладных расходов / Е.Ю. Воронова // Аудитор. - 2002. - № 7. - С. 43-51. https://mgimo.ru/files/33231/33231.pdf?utm_source=google.com&utm_medium=organic&utm_campaign=google.com&utm_referrer=google.com

3. Пашковская Л.В. Особенности распределения производственных накладных затрат в международной практике управленческого учета. Доцент кафедры бухгалтерского учета, контроля и финансов ИПК и ПЭК, к.э.н., доцент, БГЭУ, http://edoc.bseu.by:8080/bitstream/edoc/9866/4/Pashkovskaya_36_42.pdf
4. Чарльз Хорнгрен, Жорж Фостер ва Шрикант Датар "Управленческий учет" Издательство Питер, 1008 стр. 2006, ISBN5-94723-174-3

UDK: 330.322

**TA'LIM LOYIHALARIDA MOLIYAVIY MABLAG'LARDAN SAMARALI
FOYDALANISHNING XUSUSIYATLARI**

**ОСОБЕННОСТИ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ СРЕДСТВ
В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОЕКТАХ**

FEATURES EFFECTIVE USE OF FUNDS IN EDUCATIONAL PROJECTS

Toshpo'latov Maxamadsoyib Abduxokimovich
Andijon davlat texnika instituti, o'qituvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimining bugungi holati va kelajakda qanday kadrlar tayyorlanishi beqiyos ahamiyat kasb etishligi va so'nggi yillarda mamlakatimizda aynan ta'lim sohasiga yo'naltirilayotgan xarajatlarning asosiy qismi davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirilayotganligi yoritilgan. Shuning bilan, ushbu jarayon o'z navbatida ta'lim sohasida raqobatni kuchaytirish, davlat tomonidan ajratilayotgan mablag'lar salmog'ini kamaytirish va yangi moliyalashtirish manbalarini rivojlantirish istiqbollari baholangan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, Davlat byudjeti, g'azna ijrosi, moliyaviy samaradorlik, iqtisod, kapital qo'shilmalar.

В этой статье говорится о нынешнем состоянии системы образования в Республике Узбекистан и о том, какие кадры в будущем приобретают огромное значение, и о том, что в последние годы основная часть расходов на образование в нашей стране финансируется за счет средств государственного бюджета. В связи с этим были оценены перспективы усиления конкуренции в сфере образования, сокращения объема государственных средств и развития новых источников финансирования.

Ключевые слова: Конституция, Государственный бюджет, казначейское исполнение, финансовая эффективность, экономика, капиталовложения.

This article refers to the current state of the education system in the Republic of Uzbekistan and which personnel in the future acquire great importance, and that in recent years the bulk of education spending in our country has been financed from the state budget. In this regard, the prospects for increasing competition in the field of education, reducing the amount of public funds and developing new sources of financing were assessed.

Key words: Constitution, State budget, treasury execution, financial efficiency, economy, capital investments.

Davlat uchun mamlakatdagi ta'lim tizimining bugungi holati va kelajakda qanday kadrlar tayyorlanishi beqiyos ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim sohasiga yo'naltirilayotgan xarajatlarning asosiy qismi davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirilmoqda. Buning sababi shundaki, ta'lim sohasi hali to'liq iqtisodiy mustaqillikka